

## Shaxs Shakllanishi Va Ijtimoylashuvida Ijtimoiy Munosabat , Muhitning O'rni

**M.V Xalimova**

*DS(c) prof, Andijon davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs va uning shakllanishi, rivojlanishida ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy muhitning o'ziga xos roli, ahamiyati, ta'siri to'g'risida fikr bildirilgan. SHaxs haqida olimlarning tushunchalari konsepsiylari ham bayon etilgan. SHuningdek muloqot jarayonidagi shaxslaraaro munosabatlarning turli shakllari va ko'rinishlari va muloqot turlari haqida shaxslararo munosabatlar, rasmiy va norasmiy shaxslararo munosabatlar, obyektiv emotsiunal munosabat ya'ni, ijtimoiy persepsiya va kauzal atributsiyalar bilan shartlanadi. Ijtimoiy persepsiya - ijtimoiy ob'ektlar - odamlar, etnik guruhlar va ulardagi munosabatlarning o'ziga xos jihatlari ham shaxs shakllanishi uchun katta ahmiyatga egadir.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy munosabat, ob'yekt-sub'yekt, etnik munosabatlar, xuquqiy munosabatlar, genetik omil.

Inson komillikka erishhishida yuksalishida turli ijtimoiy munosabatlar, muhit, ijtimoiy institutlar katta ahmiyatga ega. Ijtimoiy munosabatlarni olaylik bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'lum turlarida, ya'ni ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi, bu jarayonda bu odamlar o'zlarining ijtimoiy maqomlari va rollarini hayotga tatbiq etadilar, maqom va rollarning o'zi esa juda aniq chegaralarga va juda qat'iy tartibga ega bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy mavqe va maqomlarga o'zaro ishonch hosil qiladi. Ijtimoiy munosabatlarning yana bir o'ziga xos ko'rinishi sifatida ob'yekt - ob'yekt va sub'yekt - sub'yekt shakllidagi xolatni misol keltiramiz. Shaxs boshqa bir butun shaxs bilan o'zaro munosabatda bo'lganda, yoki sub'ekt-ob'ekt, o'zaro ta'sir sodir bo'lganda. faqat o'z sub'ektivligining ijtimoiy begonalashtirilgan shakli (ijtimoiy I) bilan va o'zi ularda qisman va to'liq bo'lмаган ijtimoiy faol sub'ekt (ijtimoiy agent) sifatida namoyon bo'ladi. "Sof shaklda" jamoatchilik bilan aloqalar mavjud emas. Ular ijtimoiy amaliyotda mujassamlanadi va doimo ob'ektlar - ijtimoiy shakllar (narsalar, g'oyalilar, ijtimoiy hodisalar, jarayonlar) tomonidan vositachilik qiladi. deyiladi.

SHaxs rivojlanishida ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, jamoalar, ijtimoiy institutlar : oila va ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqalar jarayonida yuzaga keladigan turli xil barqaror o'zaro bog'liqliklar tizimi, faoliyati va ularning ijtimoiy maqomlari va ijtimoiy rollarini amalga oshirishida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxs shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy munosabatlarni quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tamiz.

insonning jamiyat bilan, jamiyatning inson bilan munosabati sifatida;

jamiyat vakillari sifatida shaxslar o'rtasida;

jamiyat ichidagi elementlar, tarkibiy qismlar, quiyi tizimlar o'rtasida;

turli jamiyatlar o'rtasida;

turli ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy jamoalar va ijtimoiy tashkilotlar vakillari sifatida shaxslar o'rtasida, shuningdek, ularning har biri bilan va ularning har biri ichida shaxslar o'rtasida.

Shaxs shakllanishida ijtimoiy munosabatlarning yana bir qancha sinflarini ham ko'rishimiz munkin.

Sinfiy munosabatlar;

Milliy munosabatlar;

Etnik munosabatlar;

Guruh munosabatlari;

Shaxslararo munosabatlar;

Huquqiy munosabatlar;

Ijtimoiy muhit esa insonning yashashi va ishlashi uchun uni o‘rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shartsharoitlar. O‘z o‘rnida insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta’sirida ijtimoiy muhit ham o‘zgaradi, bu o‘zgarishlar jarayonida insonlar o‘zlarini o‘zlari o‘zgartiradilar. Shaxs ijtimoiylashuviga ta’sir o‘tkazuvchi atrof-muhitni birlamchi va ikkilamchi ijtimoiylashuv maskanlariga ajratish mumkin. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o‘chog‘i, fan tilida aytilganda ijtimoiylashuv maskani hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek muhitida mahalla va ta’lim - tarbiya muassasalari ham birlamchi ijtimoiylashuv maskani sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlariga esa mehnat jamoalari.

Angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza taxtaga» o‘xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza taxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo‘lib yetishishi, ya’ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o‘zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog‘liqdir, deb ta’kidlaydi. Har ikkala yo‘nalishning namoyandalari, o‘z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini yo nasliy, biologik omillar ta’siri ostida yoki o‘zgarmas muhit ta’sirida avvaldan belgilangan va o‘zgarmas narsa, deb e’tirof etadilar.

Shaxsning shakllanishida omillar ko‘p va xilma-xiddir. Masalan, genetik, biologik-tabiyy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihatni uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'l-atvor bilan, biofiziologik jihatni esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Rubinshteyn aytib o‘tganidek, insonga faqatgina faoliyat emas balki shaxs ham tanlov huquqiga ega holda ta’sir o‘tkazish kuchiga egadir. Shaxsni o‘rganish davomidagi muhim daqiqalardan biri, Rubinshteyn fikricha faqatgina faoliyatini yoki hayot emas bundan kengroq jabhalarni o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, shaxsning shakllanishida yana uch soxan ham ahamiyatlidir.:1. faoliyat sohasi, 2. Muloqot sohasi, 3. O‘z - o‘zini anglash sohasi.

1. Ushbu faoliyat sohasida inson bevosita individdan tortib shaxs bo‘lib shakllanguncha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘zida mujassamlashtirib yuksalib boradi.
2. Muloqot jarayonida esa shaxslararo munosabatlarning verbal va noverbal shakllari orqali yanada jamiyatda ijtimoiylashadi va inson komillikka erisha oladi.
3. O‘z - ozini anglash sohasi orqali esa "men" obrazini ontogenet davri mobaynida biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga anglash hissini shaxs sifatida rivojlantirib boradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs ijtimoiylashib shakllanishi va komil inson bo‘lishida ijtimoiy muhit va munosabatlarning har bir jabhalarida namoyon bo‘ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.A.Do‘stmuhamedova, Z.T.Nishanova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva. Yosh davrlari vapedagogik psixologiya: darslik/ Toshkent – 2013
2. N.T.Tojiboyeva . "Muloqot psixologiyasi". O‘quv qo’llanma. Hayot nashriyoti: 2020.
3. M.M.Maxsudova . "Muloqot psixologiyasi". O‘quv qo’llanma. Turon-iqbol" nashriyoti.2006.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009